

O`RTA OSIYOGA ARABLAR BOSQINI DASTLABKI BOSQICHI.

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

3-bosqich talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

E-mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com

Tel: +998883638090

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab xalfaligining o`rta osiyoga harbiy yurishlarining dastlabki bosqichlar, mahalliy shaharlarnig, buxoro, sug`d, poykanda arablarga qarshi kurash lar ularning oqibatlari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so`zlar:** Marv, Buxoro, Xotun podshoh, Balx, Chag`anyon, Ubaydulloh ibn Ziyod, Said bin Usmon, Maxlab, Muslim ibn Ziyod, turklar, Sug`d.

VII asrning birinchi yarmida arablar islom bayrog'i ostida kuchli davlat tuza oldilar. Ular qisqa muddat ichida katta hududlarni, jumladan Shom, Vizantiya, Eron va Xuroson hududlarini egallab, bevosita bizning yurtimiz bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo oralig'iga yo'l ochdilar. Bu hududlarni Movarounnahr deb atashdi. Arablarning dastlabki yurishlari mahalliy hukmdorlarni sinash hamda ularning kuch-qudrati haqida ma'lumot olish maqsadida amalga oshirilgan edi. Arablar yurishlari siyosiy jihatdan tarqoq bo'lgan Movarounnahrni egallashda unchalik qiyinchilik tug'dirmadi, ammo qarshilik doimiy ravishda davom etib turgan.

VII asr o`rtalariga kelib xalifalik e'tibori O`rta Osiyo erlarini bosib olishga qaratiladi. 651 yilda arablar jangsiz Marv shahrini egallaydilar, so`ngra Amudaryogacha bo'lgan hududlar istilo qilinadi. Arablar bu hududlarni Xuroson





deb ataydilar. Bu viloyat Arab xalifasi tomonidan tayinlanadigan noib orqali boshqariladi. Noib qarorgohi Marvda joylashgan edi. Arablar Amudaryodan shimoldagi boy viloyatlarni istilo etishga tayyorgarlik ko'radilar. Bu erlarni arablar Movarounnahr, ya'ni daryoning narigi tomoni deb ataganlar. [4, b. 85].

652 yilda arablar Balx shahrini egallashga muvaffaq bo'ldilar. O'sha yili Amudaryodan o'tib Movaraunnahrga hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ammo, Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652 yilda Chag'aniyonni egallashga muvaffaq bo'ldi. Bu esa ilk bor Movaraunnahr yerlarini egallash edi. 654 yilda Sug'ddagi Maymurg' qal'asiga arablarning birinchi hujumi bo'ladi. [2, b. 142-143].

Ziyod bin Abu - Sufiyon 666 yilda jasur lashkarboshi Robia bin al- Horisni Iroqdan Xurosonga yubordi. Arablar yo'lida uchragan barcha shahar va qishloqlarni vayron qilib Balx shahriga yeib keldilar. Balx Movorounnahrga yurish uchun darvoza vazifasini o'tagan. So'g'diyonaning boyligi arablarning yana o'ziga jalb etdi.[1, b. 55]

673-yilda Ziyodning o'g'li Ubaydulloh ibn Ziyod yana Buxoroga qo'shin tortib keladi. U Boyqand va Romiton yerlarini egallaydi. Bu davrda Buxoro taxtini malika Xotun boshqarar edi. U Buxoro hukmdori bevaqt olamdan o'tgan Bidun Buxorxudotning bevasi bo'lib, o'g'li Tog'shoda yosh bo'lganligi sababli davlatni o'zi boshqarayotgan edi. Xotun oqila va tadbirkor bo'lganligidan aholi qirg'in bo'lmasligi hamda mamlakatni vayronalikdan saqlab qolish maqsadida Ubaydulloh bilan sulh bitimi tuzadi.[3, b. 133].

Musulmonlar bu yerdan juda ko'p xazina, qurollar, kiyimlar oltin -kumush narsalarni o'lja oldilar. Bular orasida Xotun podshohni noyob javoxir bilan bezatilgan va 20 000 dirhamga baholangan etigi sahroiylar arablarning nihoyatda ajablantiradi. Xotun Har yili bir million dirham tovon to'lab turish majburiyatini ham olgan. O'rtada sulh bo'lishiga qaramay oradan uch yil o'tar o'tmas arablar Said bin Usmon qo'mondonligida Xotun podshohga qarshi yana hujumga o'tdilar. [1, b. 56].



676 yilda Buxoroda Samarqand, Shahrisabz va Qarshidan kelgan 120 ming kishilik vatan himoyachilari bilan jang qiladi. Ammo samarqandliklar nima uchundir jang maydonini tashlab ketganlar. Aftidan, o'zaro chiqishmovchilik oqibatida samarqandliklar Buxorodan chiqib ketganlar. Natijada bosqinchilar ustun kelib, Xotin podshohni sulh tuzishga va tovon to'lashga majbur etadilar. Garov sifatida 80 nafar buxorolik nufuzli kishilar Said ibn Usmon qo'liga topshiriladi. Said ibn Usmon Buxoroni bosib olgandan keyin Samarqandga borib urushni davom ettiradi.

U vaqtda Samarqandda biror podshoh yo'q edi. Said Samarqanddan o'ttiz ming kishini asir qilib, ko'p molni qo'lga tushirib qaytdi. U Buxoroga yetib kelganida Xotin odam yuborib: "Sog'-salomat qaytib kelding, endi garov (80 kishi)ni bizga qoldirib ket", — dedi. Said esa: "Hali sendan xotirjam bo'lganim yo'q, toki Jayhundan o'tgunimcha qo'ya tur", — dedi. Marvga yetganida esa: "Nishopurga yetgunimcha qo'ya tur", — dedi. Nishopurga yetganida: "Kufaga yetib olay", — dedi va ularni Madinaga olib ketdi.

Madinaga yetganidan keyin Said g'ulomlariga buyurib, garovga berilgan odamlarning qilich va kamarlarini yechtirdi hamda ularda bor bo'lgan kimxob kiyimlar, tilla va kumushlarning hammasini oldirdi. Kiyimlar evaziga ularga sholcha kiyimlar berib, ekin ekish ishlariga band qilib qo'ydilar. Ular bundan juda xafa bo'lib: "Bu kishi bizga bermagan yana qanday xo'rlik qoldi? U bizni qul qilib olib, og'ir ishlarni buyurmoqda. Biz xo'rlik bilan o'lgandan ko'ra, bir yo'la foydali ish qilib o'laylik", — dedilar va Saidning saroyiga kirib, eshiklarni mahkam berkitdilar. Saidni o'ldirdilar va o'zlarini ham o'limga topshirdilar. Bu voqea 680–683-yillarda bo'lgan edi. [5, b. 25-26].

Saidning o'limidan so'ng Xuroson noibligiga Muslim ibn Ziyod ibn Abiyx tayinlanadi. U ham ko'p askar bilan Amudaryo yoqasiga safar etishga majbur bo'ldi. Xotun podshoh yordamga yana turk jangchilarini chorlaydi. Turkiston shimolidan 120 ming turk yordamga yetib keladi. Lekin arablar turklarning sonini hamda vaziyatni o'rganib bo'lguncha hujumni kechiktirdilar. Muslim bin



Ziyod o'zining yaqinlaridan askarboshi Maxlabga turklarni tekshirishni topshirdi. Har bir qismdan bir nafardan askar olib, tunda yashirin ravishda yo'lga tushdi. Ikkinchi kun erta bilan Muslim o'z askarlariga Maxlabni yuborganligini e'lon qildi. Arablar bu ishdan tashvishga tushib: "Sen amir Maxlabni o'ljalarni olish uchun yuborgansan, deyishib Maxlabning izidan borishadi. Turklar arablarni sezib qoladilar. Maxlab o'zining yonidagi askarlarini qo'shib 900 kishini sanadi. Askarlar safga tizilib ulgurgan soatdayoq turklar maydonida jangga chorlovchi burg'u tovushi eshitildi. Ular darhol hujum etib, arablardan 400 kishini qilichdan o'tkazdilar, boshqalarini qochishga majbur qildilar. Maxlab o'zining bir hovuch kishilari tomonidan ihota qilindi hamda g'oyatda qo'rqinchli holda bir na'ra urib qichqirdi. Narshaxiyning rivoyaticha, uning tovushi yarim farsax uzoqlikdagi arablar lashkargohiga eshitaladi. O'sha zahoti Abdulloh bin Jadon qo'mondonligida bir qism askarlar bilan yordamga yetib kelgan. Jangada turklar mag'lub etilgach, har bir arab askariga 10 ming dirhamdan berilgan. Xotun podshoh va Muslim o'rtasida sulh tuzilgach arablar Marvga qaytishdi. [1, b. 58-59].

683-yilda xalifa Yazid vafot etganidan so'ng xalifalikda toj-taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Bunday vaziyatda arablar yana Movarounnahrda hujum qilishdan deyarli to'xtab, o'z ichki nizolari bilan band bo'lib qoladilar. Xalifa Abdumalik ibn Marvon (685–705-yy.) davrida o'zaro ichki kurashlarga chek qo'yilib, arablar Movarounnahrda jiddiy harbiy harakatlar boshladilar.[7, b. 198].

Arablar harbiy muvaffaqiyati asosini ushbu davr uchun ancha mukammal qo'shinning yaratilishi tashkil etardi. Arablar harbiy tizimining asosini alohida qurollangan otryadlar tashkil etgan bo'lib, ularning soni 10–20 ming jangchi atrofida bo'lgan. Turli raqiblar bilan urushlar olib borish asnosida arab sarkardalari jangovar harakatlarning eng maqbul usullarini tezkorlik bilan o'zlashtirib, amaliyotga joriy eta boshlaydilar. Ayniqsa, arablar tomonidan sosoniylar va Vizantiya bilan urushlar davomida ko'plab harbiy san'at



namunalari o'zlashtirib olinadi. Tarixchilar harbiy texnika, qurol-aslaha sohasida ko'plab narsalar o'zlashtirilganligini ta'kidlashadi.[6, b. 145]

Arablarning Movarounnahrda dastlabki yurishlari VII asrning ikkinchi yarmida boshlanib, 651–705-yillar oralig'ida asosan bosqinchilik va hududni bo'ysundirish maqsadida olib borildi. Dastlab arab qo'shinlari Amudaryo hududlariga kirib kelib, Buxoro, Samarqand va Sug'd tomonlarga bir necha bor yurish qildilar. Ubaydulloh ibn Ziyod, Said ibn Usmon hamda Muslim ibn Ziyod kabi lashkarboshilar yurishlar davomida ayrim hududlarni vaqtincha egallashga muvaffaq bo'ldilar. Biroq mahalliy aholi va turk qabilalarining qarshiligi sababli arablar uzoq vaqt davomida hududda mustahkam o'rnatishga olmadi.

683-yilda xalifa Yazidning vafotidan keyin xalifalikda ichki nizolar boshlanib, Movarounnahrda yurishlar bir muddat susaydi. Xalifa Abdumalik ibn Marvon davrida esa ichki kurashlarga chek qo'yilib, arablarning Movarounnahrni bosib olish siyosati yana kuchaydi. Shu tariqa 705-yillarga kelib arablar Movarounnahrni to'liq egallash uchun yanada keng ko'lamli harbiy harakatlarni boshladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Арминий. В. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Т.: 464 б. Info Capital Books. 2024. – 464 б.
2. Eshov B. O'zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – T.: 2012. – 426 b.
3. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.
4. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi – T.: 2005. – 411 b.
5. Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (милoddan олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). — Т.: Шарқ, 2001. — 486 б.



6. Самаров Р.С. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи). – Т.: Маънавият, 2023. – 458 б.

7. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. – Т.: 2014. – 489 б.

1.